



JAZOIRNING FRANSIYA MUSTAMLAKACHILIGIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI (1945–1962)

Alimbekova Yasmina Bobir qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik

universiteti 1-bosqich magistranti

@yasminaalimbekova17@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1945-1962 yillar davomida Jazoirida Fransiya mustamlakachiligiga qarshi olib borilgan milliy ozodlik harakati tahlil qilinadi. Avvalo, Jazoirning mustamlaka ostida qolish jarayoni va fransuz hukmronligining mahalliy aholi hayotiga ta'siri yoritiladi. 1945-yil Setif va Guelma voqealari milliy harakatning keskin bosqichiga aylanganligi hamda bu voqealarning keyingi qarshilik harakatlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, 1954-yilda Milliy Ozodlik Frontining (FLN) tashkil topishi, qurolli kurashning boshlanishi va xalqaro hamjamiyatning munosabati o'rganiladi. 1962-yil Evian kelishuvlari natijasida Jazoir mustaqillikka erishishi, bu jarayonda Bishara al-Xuri singari yetakchi shaxslarning roli va milliy ozodlik harakatining global dekolonizatsiya jarayonlariga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot davomida milliy harakatning muvaffaqiyat omillari va uning zamonaviy Jazoir jamiyatiga ta'siri ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jazoir, milliy ozodlik harakati, Fransiya mustamlakachiligi, Setif va Guelma voqealari, Milliy Ozodlik Fronti (FLN), Evian kelishuvlari.

Abstract: This article analyzes the national liberation movement in Algeria against French colonial rule from 1945 to 1962. It first examines Algeria's experience under colonial rule and the impact of French governance on the lives of the local population. The Setif and Guelma events of 1945, which marked a critical stage of the national movement and influenced subsequent resistance efforts, are also analyzed. Furthermore, the study explores the formation of the National Liberation Front (FLN) in 1954, the beginning of armed struggle, and the international



community's response. The article also discusses Algeria's achievement of independence through the 1962 Evian Agreements, the role of key figures such as Bishara al-Khuri, and the movement's contribution to global decolonization processes. Finally, the factors behind the movement's success and its impact on contemporary Algerian society are assessed.

Keywords: *Algeria, national liberation movement, French colonialism, Setif and Guelma events, National Liberation Front (FLN), Evian Agreements.*

Fransiyaning Jazoirni mustamlaka qilish jarayoni 1830-yilda boshlandi va bu 100 yildan ortiq davom etgan shafqatsiz mustamlakachilik davrining boshlanishini belgiladi. Fransiyaning Jazoirga bostirib kirishi harbiy hujumlar bilan boshlandi va mahalliy aholi kuchli repressiyalarga uchradi. Bosqinchilikka qarshi dastlabki qarshilik harakatlari tashkil etilgan bo'lsa-da, Fransiyaning harbiy ustunligi mamlakatni butunlay bosib olishni ta'minladi. Fransiya Jazoirni mustamlakaga aylantirib, fransuz qishloq joylashganlaridan (kolonlardan) iborat bo'lib, bu yerning katta qismini egallab oldi. Bu holat mahalliy aholini yerini yo'qotib, qashshoqlikka yuz tutishga va og'ir mustamlaka siyosatlariga duchor bo'lishiga olib keldi. Fransiya nafaqat iqtisodiy nazoratni o'rnatdi, balki madaniy jihatdan ham yurtning asli aholisini bo'g'ib qo'ydi, ta'lim tizimida fransuz tilini majburan joriy etib, ularning qadriyatlarini mahalliy aholiga yukladi.¹

Fransiya hukumati Jazoirni o'z foydasiga iqtisodiy jihatdan boshqarib, katta yerlarni va tabiiy resurslarni, jumladan, bug'doy va vino kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z mamlakatiga eksport qilgan. Bu ekspluatatsiya mahalliy jazoirliklarni qashshoqlikka olib keldi, ular yerga va o'zini ta'minlashga yaroqli vositalarga ega bo'lmagan. Mahalliy aholi ikkinchi darajali fuqarolar sifatida qaraldi, siyosiy huquqlaridan va vakillik huquqlaridan mahrum qoldi. Fransiya hukumati madaniy assimilyatsiya siyosatini amalga oshirdi, bu ko'pincha zo'ravonlik va majburiyat bilan bajarildi. Masalan, fransuz ta'lim tizimi jazoirliklarga joriy etildi,

¹ Ланда Р.Г. История арабских стран.с.239.



fransuz tili maktablarda asosiy tilga aylantirildi, shu bilan birga an'anaviy arab va berber madaniyatlari e'tibordan chetda qoldirildi.² Jazoirning Fransiya mustamlakachiligiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari XX asrning eng muhim tarixiy voqealaridan biri bo'lib, uning dolzarbligi ko'p jihatdan dekolonizatsiya jarayonining global ahamiyatiga borib taqaladi. Fransiyaning 1830-yilda Jazoirni bosib olishi natijasida mahalliy aholi iqtisodiy, madaniy va siyosiy ekspluatatsiyaga duch keldi. 132 yil davomida Fransiya tomonidan amalga oshirilgan siyosatlar Jazoir xalqining milliy o'zligini yo'q qilishga qaratilgan edi. Mustamlakachilik davrida arab tili va islom dini cheklab qo'yildi, yerlar va tabiiy resurslar fransuz kolonistlari nazorati ostiga o'tkazildi. Natijada, mahalliy aholi qashshoqlikka yuz tutdi va asosiy siyosiy huquqlardan mahrum bo'ldi. Jazoir milliy-ozodlik harakatlari nafaqat mustaqillikka erishishga qaratilgan edi, balki milliy o'zlikni tiklash va xalqning madaniy merosini himoya qilish uchun ham kurashdi. Milliy-ozodlik harakatlarining muvaffaqiyati boshqa mustamlaka ostidagi xalqlar uchun ilhom manbai bo'ldi. Jazoirning Fransiya mustamlakachiligidan ozod bo'lishi dekolonizatsiya jarayonining muhim qismi bo'lib, Afrika va Osiyo mamlakatlari uchun mustamlakachilikka qarshi kurash yo'lida misol bo'lib xizmat qildi. Mazkur harakatlar Jazoirning milliy tarixi va xalqaro siyosatidagi hal qiluvchi omil bo'lib, ularning ahamiyati bugungi kunda ham saqlanib kelmoqda. Jazoirning milliy-ozodlik harakati faqat ichki siyosiy kurash bilan cheklanib qolmagan. Bu harakat xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. BMT minbarida Jazoir xalqining mustaqillikka bo'lgan intilishi e'tirof etildi, arab va musulmon mamlakatlari tomonidan har tomonlama yordam ko'rsatildi. Jazoir milliy-ozodlik harakatining muvaffaqiyati Fransiya ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu urush Fransiya ichki siyosiy tizimini o'zgartirib, To'rtinchi Respublikadan Beshinchi Respublika tizimiga o'tishni tezlashtirdi. Fransiya jamiyati Jazoiridagi urush natijasida mustamlakachilik siyosatining axloqiy va siyosiy oqibatlari haqida jiddiy o'ylashga

² Свидетельство Амин Восстания арабов в XX веке.с.340.



majbur bo'ldi. Jazoir mustaqillikka erishishi bilan dekolonizatsiya jarayoni faqat bu mamlakatning o'zida emas, balki butun dunyo siyosiy tarixida yangi sahifa ochdi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida, Fransiya hukmronligi davom etganida, Jazoirning mahalliy aholisida qarshilik va milliy uyg'onish harakatlariga ilhom beradigan holatlar yuzaga keldi. Jazoirliklar o'z siyosiy huquqlarini va tan olishni talab qiladigan bo'lishdi, bu, bir tomondan, global milliy ozodlik harakatlari va mustamlakachilikka qarshi kurashning kuchayishi bilan bog'liq edi. Ushbu dastlabki qarshilik harakatlariga qaramay, Fransiya zo'ravonlik yo'li bilan hukmronligini davom ettirdi. Birinchi jahon urushi 1914-yilda boshlanganida, ko'plab jazoirliklar fransuz armiyasiga qo'shildilar, siyosiy huquqlarni olish umidida. Ammo urushdan keyin, Fransiya hukumati ularning hissalarini e'tirof etmay, jazoirliklar o'rtasida norozilikni kuchaytirdi.³ Urushlar o'rtasidagi davrda, iqtisodiy qiyinchiliklar va siyosiy cheklovlar Jazoirda davom etdi. Fransiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan repressiv siyosatlar davom etdi va ko'plab milliy harakatlar tashkil etilib, jazoir xalqining teng huquqlari va mustaqillik talablariga javob berdi. Bunday guruhlardan biri "Étoile Nord-Africaine" bo'lib, bu tashkilot Jazoir mustaqilligini va fransuz hukmronligi ostida tenglikni talab qilgan.⁴ Biroq, Fransiya hukumati ushbu harakatlarni bostirib, ularning yetakchilarini hibsga oldi. Shunga qaramay, milliy g'oya va ozodlikka bo'lgan talablar yanada kuchayib bordi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, 1945-yilda Jazoirda ommaviy noroziliklar boshlandi. Ushbu noroziliklar Setif qirg'ini bilan yakunlandi, bu erda Fransiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan javoblar zo'ravonlikka aylanib, minglab jazoirliklarning o'limiga olib keldi. Ushbu qirg'in Jazoirning mustaqillik uchun kurashida burilish nuqtasiga aylandi, bu esa mustamlakachilar va mustamlakachilik ostidagi xalqlar o'rtasidagi tafovutni chuqurlashtirib, ko'plab jazoirliklarni milliy harakatlarga qo'shilishga undadi. Setif qirg'inidan so'ng Milliy Ozodlik Fronti (FLN) 1954-yilda tashkil etildi va tezda mustaqillik kurashining etakchi kuchiga aylandi. FLN gurillalari, partizanlik taktikalari orqali, Fransiya armiyasiga qarshi

³ Ланда Р.Г. История Алжирской революции 1954-1962.с.237.

⁴ Ланда Р.Г. История Алжира. XX век. с.242.



uzoq davom etgan mustaqillik urushini boshladi. Bu 1954-yilda Jazoir Ozodlik Urushi ning boshlanishi bo'lib, 1962-yilgacha davom etdi.⁵

Jazoirning Fransiya mustamlakachiligi davridagi tarixi (1830–1962) tizimli zulm, iqtisodiy ekspluatatsiya va madaniy o'zlikni yo'q qilish siyosati bilan ajralib turadi. Fransiya hukmronligi davrida Jazoirning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasi butkul o'zgartirilib, aholining qashshoqlashuvi, tengsizlik va qarshilikka sabab bo'ldi. Quydagi tahlillar R.G. Landa tomonidan yozilgan “XX asrda Jazoir tarixi” va “Jazoir inqilobi tarixi” kitoblariga asoslanadi.

Fransiyaning bosqini va nazoratni o'zlashtirishi. Fransiya qo'shinlari 1830-yilda Jazoirga bostirib kirib, Aljirning Dey tomonidan qilingan diplomatik haqoratlarga javoban harbiy yurishni boshladi. Ushbu hujum ortidan mahalliy aholini bo'ysundirishga qaratilgan uzoq muddatli va shafqatsiz harbiy kampaniyalar olib borildi. Bosqinchilik natijasida Jazoirdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar qulatilib, Fransiya mustamlakachilik ma'muriyati o'rniga joriy etildi. Jazoirning boy qishloq xo'jaligi yerlari musodara qilinib, Yevropalik ko'chmanchilarga tarqatib berildi. 20-asr boshlariga kelib, Jazoirning unumdor yerlarining taxminan 30 foizi fransuz ko'chmanchalari nazorati ostiga o'tdi.⁶

Siyosiy diskriminatsiya. Fransiya hukmronligi davrida jazoirliklar siyosiy ishtirokdan deyarli cheklangan edi. 1870-yilgi “Kremye farmoni” Yevropaliklar va yahudiylarga Fransiya fuqaroligini berdi, ammo musulmonlarni bundan istisno qildi. Jazoirliklar diskriminatsion qonunlarga bo'ysundirildi va asosiy huquqlardan mahrum qilindi. Ushbu siyosiy cheklovlar aholi orasida g'azab va norozilikni kuchaytirib, milliy ozodlik harakatini jonlantirgan asosiy omillardan biriga aylandi.

Qarshilik va isyonlar. Jazoir xalqining Fransiya mustamlakachiligiga qarshi qarshiliklari dastlabki yillardan boshlab kuzatildi. Eronda Abdulqodir kabi liderlar tomonidan olib borilgan qurolli harakatlar fransuz hukumatiga jiddiy zarba berdi. 20-asrda bu qarshiliklar siyosiy tashkilotlar va huquqiy kurashlar ko'rinishida rivojlandi.

⁵ Новейшая История арабских стран Азии 1917-1985.с.241.

⁶ Ланда Р.Г. История Алжирской революции 1954-1962.с.233.



1940-yillarga kelib, mustaqillik uchun talablar kuchayib, 1954-yilda boshlanadigan Jazoirning Mustaqillik urushiga asos solindi.⁷

Mustamlakachilikning iqtisodiy va madaniy oqibatlarini. Mustamlaka davrida Jazoir iqtisodiyoti asosan Fransiya manfaatlariga xizmat qildi. Fransiya kompaniyalari neft, gaz va qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish orqali katta daromadga ega bo'ldi⁴. Shu bilan birga, jazoirlik dehqonlar yerlarini yo'qotdi va asosan yollanma ishchilar sifatida ishlashga majbur bo'ldi.

Norozilik harakatlari va qo'zg'olonlar. Jazoir mustamlakachilik davrida bir necha yirik qo'zg'olonlarga sahna bo'ldi. XIX asrning o'rtalarida Amir Abdul Qodir boshchiligidagi qo'zg'olon Fransiya hukmronligiga qarshi eng yirik harakatlardan biri edi. Abdul Qodirning harbiy strategiyasi va diniy targ'ibotlari jazoirliklar orasida keng qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, 1871-yilda bo'lib o'tgan qo'zg'olon ham Fransiyaning yuqori soliqlar va majburiy mehnat siyosatiga javob edi. Ushbu qo'zg'olonlar qattiq bostirildi va bu harakatlardan keyin mahalliy aholi orasida qarshilik kayfiyati kuchaydi.

Ikkinchi Jahon Urushi va milliy harakatning kuchayishi. Ikkinchi Jahon Urushi davomida Fransiya armiyasi uchun minglab jazoirliklar xizmat qildi. Urushdan keyin jazoirliklar o'zlarining xizmatlari evaziga Fransiyadan siyosiy huquqlar talab qildilar. Ammo 1945-yilda Fransiya hukumati bu talablarni rad etdi. Bu esa milliy-ozodlik harakatining yangi bosqichini boshlab berdi. Fransiyaning Jazoirni mustamlaka qilishi 1830-yilda boshlangan bo'lib, uzoq muddat davomida Jazoir xalqi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan ezildi.⁸

1945-yil Setif va Guelma voqealari

1945-yil Setif va Guelma shaharlarida yuz bergan voqealar mustamlakachilikka qarshi harakatlarni tezlashtirdi. Bu voqealar Jazoir xalqining

⁷ Ланда Р.Г. История Алжира. XX век. М.: Институт востоковедения РАН, 1999. – с. 239-240.

⁸ Волянский В.Ф., Траскунова А.М. Алжир: от национального освобождения к социальному. М., 1976.



mustamlakachilikka bo'lgan nafratini kuchaytirdi va Milliy Ozodlik Fronti (FLN)ning tashkil topishi uchun asos yaratdi.

Mustamlakachilikning Jazoir jamiyatiga uzoq muddatli ta'siri. Fransiya mustamlakachiligi davrida Jazoirda yuz bergan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar mamlakatni mustaqillikdan keyin ham qiyin ahvolda qoldirdi. Iqtisodiy infratuzilma asosan kolonial ehtiyojlar uchun shakllangan bo'lib, bu milliy rivojlanishni cheklab qo'ydi. Mahalliy aholi orasida savodsizlik darajasi yuqori bo'lib qoldi, chunki mustamlaka davrida ta'lim sohasi faqatgina fransuzlar manfaatlari uchun xizmat qilgan edi. Shu sababli, mustaqillikdan keyin Jazoir hukumati iqtisodiy va madaniy tizimni qayta qurishga majbur bo'ldi.

Mustamlakachilikka qarshi milliy ongning shakllanishi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Jazoirda milliy ongning shakllanish jarayoni boshlanib, bu jarayon mustamlakachilikka qarshi harakatlarning kuchayishiga olib keldi. Fransiyaning zulmkor siyosati mahalliy aholining milliy o'zligini anglashiga turtki berdi.

Islom dini va arab madaniyati milliy harakatlar uchun kuchli mafkuraviy asos bo'ldi. Ulamolar va diniy yetakchilar milliy-ozodlik harakatlarining birinchi rahnamolariga aylandilar. Bundan tashqari, diaspora va jazoirlik muhojirlarning xalqaro sahnadagi faoliyati milliy masalaning dunyoga tanilishiga xizmat qildi.

Mustamlakachilikka qarshi milliy harakatlarning tashkil etilishi. Jazoirning Fransiya mustamlakachiligi ostida qolishi davrida milliy harakatlar asosan yashirin shaklda faoliyat yuritgan. Bu harakatlar mahalliy aholining mustamlakachilik zulmiga bo'lgan noroziligi asosida shakllangan. XIX asr oxirlarida Amir Abdul Qodir boshchiligidagi qo'zg'olon Jazoir tarixida muhim o'rin tutdi. Ushbu harakat mahalliy aholini birlashtirish va mustaqillikka erishish yo'lida birinchi qadam bo'ldi.

Milliy harakatlarning dastlabki bosqichlarida ikki asosiy yo'nalish shakllandi:

Islomiy millatchilik: Diniy va madaniy qadriyatlarni himoya qilishga asoslangan.



Siyosiy millatchilik: Demokratik tuzum va ijtimoiy tenglikni targ'ib qiluvchi harakat.

Jazoir milliy-ozodlik harakatining ilk shakllari

1920–1930-yillarda milliy-ozodlik harakatlari yangi bosqichga kirdi. Bu davrda bir qancha siyosiy partiyalar va tashkilotlar tuzildi. Misol uchun:

“Etoile Nord-Africaine” (Shimoliy Afrika yulduzi): Bu harakat Jazoir mustaqilligi uchun kurash olib borgan dastlabki siyosiy tashkilotlardan biri edi.

Ferhat Abbos harakati: Demokratik asoslarda tashkil etilgan va siyosiy islohotlarni talab qilgan.⁹

1962-yil Evian kelishuvi va mustaqillikka erishish. 1962-yil Evian kelishuvlari va Jazoir mustaqilligining e'lon qilinishi mustamlakachilik davrining tugashi va yangi davr boshlanishi nuqtai nazaridan nafaqat Jazoir, balki dunyo tarixida ham muhim burilish bo'ldi. Ushbu voqeani to'liq yoritish uchun muzokaralar jarayoni, unga olib kelgan sabablar, qatnashgan tomonlarning siyosiy manfaatlari, xalqaro munosabatlar va kelishuvning natijalari bilan bog'liq ma'lumotlarni batafsil ko'rib chiqish zarur.

Evian kelishuvlarining tarixiy asosi Fransiyaning 1830-yilda Jazoirni bosib olishidan boshlangan mustamlakachilik davriga borib taqaladi. Jazoirning Fransiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olinishi nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham xalqqa ulkan zarar yetkazdi. 1954-yilda Milliy Ozodlik Fronti (FLN) tomonidan boshlangan milliy-ozodlik harakati bu tarixiy zulmga qarshi qaratilgan edi. Jazoirliklar ko'p yillik kurash davomida faqat harbiy harakatlarga emas, balki xalqaro diplomatik sa'y-harakatlarga ham katta e'tibor qaratdilar.

Evian muzokaralariga olib kelgan muhim omillardan biri, Jazoir urushining Fransiya jamiyatida va xalqaro maydonda kuchayib borayotgan qarshilikka sabab bo'lishi edi. Urush davomida ikki millionga yaqin jazoirliklar Fransiya armiyasi tomonidan ko'chirilgan yoki qatl etilgan. Shu bilan birga, urush Fransiyaning o'zida ichki siyosiy beqarorlikka olib keldi: iqtisodiy yo'qotishlar, armiyadagi isyonlar va

⁹ <https://daily.jstor.org/what-are-colonies-for-france-and-algeria-1848/>



jamiyatning urushga bo'lgan noroziligi De Goll hukumatining tinchlik yo'lini izlashiga sabab bo'ldi.¹⁰

1961-yilga kelib, De Goll boshchiligidagi Fransiya hukumati FLN bilan muzokaralar boshlashga qaror qildi. Evian shahrida bo'lib o'tgan muzokarlarda FLN vakillari Jazoirning mustaqilligini tan olishni talab qilgan bo'lsa, Fransiya hukumati Jazoirda yashayotgan yevropaliklar (Pye-Noirs) huquqlarini saqlab qolishni va Fransiyaning iqtisodiy manfaatlarini kafolatlashni ko'zlagan. Muzokaralar davomida ikki tomon ham katta bosim ostida ishladi. FLN xalqaro hamjamiyat, ayniqsa, Sovet Ittifoqi va arab davlatlaridan qo'llab-quvvatlash oldi, bu esa Fransiyaning o'z pozitsiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi.

1962-yilning 18-martida imzolangan Evian kelishuvlari Jazoir urushiga yakun yasadi. Ushbu hujjatda Jazoirning mustaqilligini tan olish, qurolli harakatlarni to'xtatish, Fransiyaning harbiy bazalarini mamlakatdan olib chiqish va fuqarolik boshqaruvini qayta tiklash masalalari belgilandi. Shuningdek, kelishuvda Fransiya Pye-Noirs va Yahudiylarning mulkiy va madaniy huquqlarini himoya qilish majburiyatini olgani ta'kidlangan.¹¹

Kelishuvlar natijasida 1962-yilning 1-iyulida Jazoirda referendum o'tkazildi. Bu referendumda aholining 99,72% mustaqillikni qo'llab-quvvatladi. Ushbu voqea Jazoir xalqi uchun buyuk g'alaba edi. 5-iyul kuni Jazoir rasman o'z mustaqilligini e'lon qildi. 1830-yilda Fransiya tomonidan bosib olingan ushbu mamlakat deyarli 132 yillik mustamlakachilikka barham berib, yangi davrni boshladi.¹²

Jazoir mustaqilligini qo'lga kiritgan bo'lsa-da, mamlakat oldida bir qator muhim muammolar turar edi. Ko'p yillik urush davomida vayron bo'lgan infratuzilma, ichki siyosiy bo'linishlar va iqtisodiy qiyinchiliklar mamlakatni tiklash zaruratini tug'dirdi. Milliy Ozodlik Fronti hukumatni boshqarishni o'z qo'lga olib, mamlakatni birlashtirish va barqarorlikni ta'minlashga harakat qildi.

¹⁰ Жансон К. И Ф. Алжир вне закона. М., 1957.

¹¹ Амин Саид. Восстания арабов в XX веке. Прогресс. Москва-1964.-с.338.

¹² <https://www.usni.org/magazines/proceedings/1957/july/algeria-case-study-evolution-colonial-problem>



Evian kelishuvlari nafaqat Jazoir, balki boshqa mustamlaka davlatlar uchun ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu kelishuv mustamlakachilik tuzumining barbod bo'lishida hal qiluvchi qadam sifatida ko'riladi. Xalqaro hamjamiyat ushbu kelishuv orqali kolonializmga qarshi kurashni qo'llab-quvvatladi va mustaqillikka erishish uchun tinchlik yo'lidagi harakatlar ahamiyatini tan oldi.

1962-yilgi voqealar nafaqat Jazoir tarixida, balki xalqaro munosabatlar va geopolitik o'zgarishlarda ham muhim burilish bo'ldi. Bu g'alaba boshqa arab davlatlari va Afrika mamlakatlarining mustamlakachilikka qarshi kurashiga ilhom berdi. Shu tariqa, Jazoir milliy-ozodlik harakati nafaqat o'z mamlakati, balki butun dunyo uchun ozodlik va adolat ramziga aylandi.

XULOSA

Jazoirning Fransiya mustamlakachiligiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari (1945–1963) nafaqat Jazoir xalqining buyuk g'alabasini, balki mustamlakachilik tizimining inqirozini ham ko'rsatdi. Ushbu harakatning mohiyati o'z mamlakatining erkinligi uchun kurashda butun xalqning birlashuvida aks etdi.

Jazoir harakatining tarixiy sabablari va o'rni. Jazoirda milliy-ozodlik harakatining yuzaga kelishiga Fransiyaning mustamlakachilik siyosati sabab bo'ldi. Fransiya o'z hukmronligini nafaqat harbiy kuch bilan, balki iqtisodiy va madaniy ekspluatatsiya orqali mustahkamlashga harakat qildi. Mahalliy aholining yerlariga egalik huquqidan mahrum etilishi, soliqlar va ish haqining minimal darajada belgilanishi jazoirliklar hayotini og'irlashtirdi.

Bundan tashqari, madaniy assimilyatsiya siyosati orqali mahalliy aholi arab va berber tillarini cheklash, fransuz tilini joriy qilish kabi bosimlarga duch keldi. Ushbu siyosat mahalliy madaniyatni yo'q qilishga qaratilgan bo'lsa-da, aksincha, xalqning milliy ongini kuchaytirdi va ularni birdamlikka chorlagan omillardan biriga aylandi.

Milliy-ozodlik harakatining bosqichlari. Jazoir milliy-ozodlik harakatining rivojlanishi bir necha bosqichlardan o'tdi. 1945-yilda Setif va Guelma voqealari Jazoir xalqining mustaqillikka bo'lgan intilishining boshlanishi bo'ldi. Bu voqealar



Fransiyaning shafqatsiz munosabatini va mustamlakachilik tizimining adolatsizligini ochib berdi.

1954-yilda Milliy Ozodlik Frontining (FLN) tashkil topishi bilan qurolli kurash bosqichi boshlandi. FLN xalqni birlashtirishda va xalqaro yordam olishda muhim rol o'ynadi. Arab davlatlarining moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi, shuningdek, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning yordam ko'rsatishi Jazoir harakatining muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam berdi. Evian kelishuvi va mustaqillikka erishish. 1962-yilda Evian kelishuvi orqali Jazoir o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Bu kelishuv Jazoir xalqining uzoq yillik kurashi va xalqaro bosimlar natijasida amalga oshdi. Mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng, Jazoir hukumati iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tizimlarni qayta qurish ishlariga kirishdi.

Milliy harakatning global ta'siri. Jazoirning milliy-ozodlik harakati xalqaro miqyosda mustamlakachilikka qarshi harakatlar uchun ilhom manbai bo'ldi. Osiyo va Afrika mamlakatlari o'z mustaqilligi uchun kurashda Jazoir tajribasidan foydalandi.

Xulosa qilib aytganda, Jazoir milliy-ozodlik harakati insoniyat tarixidagi eng qahramonlarcha kurashlardan biri bo'lib, bu harakat orqali Jazoir xalqi nafaqat mustaqillikni qo'lga kiritdi, balki xalqaro hamjamiyatga mustamlakachilikning inson huquqlariga zid ekanligini namoyish etdi. Mustamlakachilik tizimining qulashida Jazoir kurashi ramziy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etdi. Jazoir xalqining mashaqqatli va qahramonona kurashi nafaqat milliy erkinlikni, balki dunyo xalqlari uchun mustaqillik va erkinlik yo'lidagi buyuk saboqni ifoda etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ланда Р. Г. История Алжира в XX веке. — Москва: Наука, 1976. — 312 с.
2. Ланда Р. Г. Алжирская революция (1954–1962). — Москва: Наука, 1980. — 284 с.
3. Ageron, Charles-Robert.
Modern Algeria: A History from 1830 to the Present. — London: Hurst & Company, 1991. — 240 p.



4. Stora, Benjamin. Algeria, 1830–2000: A Short History. — Ithaca: Cornell University Press, 2001. — 256 p.
5. Horne, Alistair. A Savage War of Peace: Algeria 1954–1962. — New York: New York Review Books, 2006. — 576 p.
6. Evans, Martin. Algeria: France's Undeclared War. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — 480 p.
7. Ruedy, John. Modern Algeria: The Origins and Development of a Nation. — Bloomington: Indiana University Press, 2005. — 336 p.
8. Talbott, John. The War Without a Name: France in Algeria, 1954–1962. — New York: Alfred A. Knopf, 1981. — 402 p.
9. Abbas, Ferhat. Autopsie d'une guerre: L'aurore. — Paris: Garnier, 1980. — 318 p.
10. United Nations General Assembly. The Question of Algeria: United Nations Documents, 1955–1962. — New York: United Nations Publications, 1963.
11. Kepel, Gilles. Jihad: The Trail of Political Islam. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2002. — 454 p.
12. Ben Bella, Ahmed. Mémoires. — Paris: Stock, 1982. — 412 p.